



## KELINSALOM QO'SHIQLARINING BOSHQA JANRLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Yo'ldoshev Javlon

Nukus DPI 2-bosqich magistranti

*Annotatsiya:* O'zbek folklorida oilaviy marosimning bir bo'lagi bo'lgan kelin salom qo'shiqlarining yartilish shakllari, aruz vaznida yaratilgan she'r janrlari bilan qofiyalanishi jihatidan o'xshashligi alohida ahamiyat kasb etadi.

*Kalit so'zlar:* O'zbek folklori, marosimlar, yor-yor, kelin salomlar.

Xalq og'zaki ijodi – asrlar davomida, xuddi kulol loyni pishitgandek, ishlov berilib, pishitilib, inonch va qarashlari, orzu-o'ylari, niyat va istaklari jamlangan ijoddir. Kelin salom qo'shiqlari turkiy xalqlarda o'ziga xos o'ringa ega marosim jarayonida ijro etiluvchi folklor materiali sifatida avloddan avlodga o'tib, boyib kelayotgan ma'naviy meros, qadriyat hisoblanadi. Uning janr sifatida shakllanishi, tuzilishi, o'ziga xos qofiya tizimi va ijro uslubi alohida ahamiyatga ega.

O'zbek tilining nihoyatda keng imkoniyati, ifoda va ohangiga mos bo'lgan she'r vazni barmoq vazni hisoblanadi. Barmoq she'r vaznida asosiy o'lchov bo'g'in bo'lib, misra bo'g'inlari bir xil miqtorda takrorlanadi va bir xil guruhlarga bo'linadi. Aruz she'r vazni esa misralarda hijolarning qat'iy miqdori guruhlarga ajratilishi, hijolarning qisqa, cho'ziq, o'ta cho'ziqligi bilan barmoq she'r vazinlaridan ajralib turadi. O'zbek folklorida oilaviy marosimning bir bo'lagi bo'lgan kelin salom qo'shiqlarining yartilish shakllari, aruz vaznida yaratilgan she'r janrlari bilan qofiyalanishi jihatidan o'xshashligi alohida ahamiyat kasb etadi. Aruzda yaratilgan bir qancha she'r janrlarining umumiy nomi bo'lgan „musammat – (ar. „marvarid donolarini ipga termoq“) bandli she'r“<sup>1</sup> bo'lib, uning „*musallas, murabba', muxammas*“ kabi turlari bilan kelin salom qo'shiqlarining bir qancha o'xshash va farqli jihatlarini quyida tahlilga tortdik.

Musallas (ar. „uchlik“) uch misrali band usulida yozilgan she'r bo'lib: a-a-a, b-b-a, d-d-a ... shaklida qofiyalanadi. „G'arbda tetrina deb ataladi“.<sup>2</sup>

Hamza Hakimzoda Niyoziyning

*Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,  
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.*

<sup>1</sup> Yusupova.D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: „ta'lim-media“ nashriyoti, 2019. – B. 141.

<sup>2</sup> Karimov.O. Mumtoz she'riyat janrlari. – „Namangan“ nashriyoti.2015. – B. 20.



<b>Biz</b>	<b>ni</b>	<b>Tur</b>	<b>kis</b>	<b>to</b>	<b>ne</b>	<b>li</b>	<b>dar</b>	<b>di</b>	<b>ga</b>	<b>dar</b>	<b>mon</b>	<b>is</b>	<b>ta</b>	<b>mas</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
<b>Zul</b>	<b>ma</b>	<b>tich</b>	<b>ra</b>	<b>kech</b>	<b>sa</b>	<b>um</b>	<b>ri</b>	<b>mo</b>	<b>hi</b>	<b>to</b>	<b>bon</b>	<b>is</b>	<b>ta</b>	<b>mas</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
<b>Ux</b>	<b>la</b>	<b>ma</b>	<b>o'z</b>	<b>be</b>	<b>ke</b>	<b>li</b>	<b>as</b>	<b>ri</b>	<b>ta</b>	<b>raq</b>	<b>qiy</b>	<b>vaq</b>	<b>ti</b>	<b>da</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

*Foilotun foilotun foilotun foilun*

Ushbu bayt 15 hijodan iborat bo'lgan musallas *Ramali musammani mahzuf* (ya'ni oxirgi bir bo'g'in yetmasligi sababli qusurli, mahzuf) shaklida yozilgan.

*Ko'nglidur oshufti lahv-u tara, nafs-u havo  
Tilsa zillat xanjari bag'rini Luqmon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.*

<b>Ko'ng</b>	<b>lid</b>	<b>ur</b>	<b>o</b>	<b>shuf</b>	<b>ta</b>	<b>i</b>	<b>lah</b>	<b>vu</b>	<b>tar</b>	<b>ab</b>	<b>naf</b>	<b>su</b>	<b>hav</b>	<b>o</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
<b>Til</b>	<b>sa</b>	<b>zil</b>	<b>lat</b>	<b>xan</b>	<b>jar</b>	<b>i</b>	<b>bag'</b>	<b>ri</b>	<b>ni</b>	<b>Luq</b>	<b>mon</b>	<b>is</b>	<b>ta</b>	<b>mas</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
<b>Ux</b>	<b>la</b>	<b>ma</b>	<b>o'z</b>	<b>be</b>	<b>ke</b>	<b>li</b>	<b>as</b>	<b>ri</b>	<b>ta</b>	<b>raq</b>	<b>qiy</b>	<b>vaq</b>	<b>ti</b>	<b>da</b>
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

*Foilotun foilotun foilotun foilun*

Ushbu musallas (*uchlik*) *b-v-a* shaklida qofiyalangan. 15 hijodan tashkil topgan *Ramali musammani mahzuf* (ya'ni oxirgi bir bo'g'in yetmasligi sababli qusurli, mahzuf) shaklida yozilgan.

Kelin salom qo'shiqlari uch misrali band usulida, ikki misra bir biriga: *b-b-a*, *d-d-a* ... shaklida qofiyalanishi bilan musallas she'r janriga o'xshab ketadi. Ammo musallas aruz vaznida, kelin salom qo'shiqlari *barmoq* vaznida yozilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Kelin salom qo'shiqlarining uchunchi misrasi salom qaratilgan shaxsga ishora bo'lganligi sababli erkin bo'ladi. Shu sababli ko'p hollarda kelin salom qo'shiqlari *barmoq* she'r tizimining qo'shma vaznida yaratiladi.

Masalan:



	<i>bo'g'inlar soni</i>	<i>turoq tartibi</i>
<i>Ko'chaga chiqib / yosh bo'lgan</i>	– 8 bo'g'in	5+3=8
<i>Ulli ro'zg'orga / bosh bo'lgan</i>	– 8 bo'g'in	5+3=8
<i>Qayin og'asiga / bir salom!</i>	– 9 bo'g'in	6+3=9
<i>Non ber desa / yon bergan,</i>	– 7 bo'g'in	4+3=7
<i>Non ustida / jon bergan,</i>	– 7 bo'g'in	4+3=7
<i>Mavluda ovsinningga / bir salom!</i> <sup>3</sup>	– 10 bo'g'in	7+3=10

Murabba' (ar. „to'rtlik“) – to'rt misralik band usulida aruz vaznida yozilgan she'r. Qofiyalanishi: a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a ... shakllari mavjud. Ko'pincha murabba'larning birinchi bandidagi barcha misralar qofiyalanmay, she'r xuddi ikkinchi misradagidek b-b-b-a tarzidagi qofiyalar bilan boshlanadi, keyingi barcha bandlarning to'rtinchi misralari birinchi bandning oxirgi misrasi bilan qofiyadosh bo'lib keladi, yoxud takrorlanadi. Mashrabning

*Bulbuldayinkim faryod etarman,  
Ishq daftarini bunyod etarman,  
Ko'ngillarimni men shod etarman,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?*

*Gam baxri qildi baxrini bunyod,  
Ishqingda qildim yuz oxu faryod,  
O'tti nigorim chun sarvi ozod,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?*<sup>4</sup>

Ushbu murabba'ning kelin salom qo'shig'i bilan: radif qo'llanishi, bir xillikda qofiyalanishi va to'rtinchi misraning har bayt oxirida takror qo'llanishi kabi o'xshash jihatlarini kuzatishimiz mumkin.

Masalan:

*So'zlaringni tinglab, „bol-qandim“, – desin,  
Hurmat izzat ko'rib, „dilbandim“, – desin,  
Farzandingni suyib, „farzandim“, – desin,  
Qaynenangga qaytadan ber bir salom!*

*Jam bo'lishdi to'yda bari qarindosh,*

<sup>3</sup>. Тошкент: Гофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – 1983. – Б. 272.

<sup>4</sup> А. Хожиахмедов. Мумтоз бадиият малохати. – “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти Тошкент – 1999. – В. 214.



*Birisi ko'z bo'lib, biri bo'lib qosh,  
Baxtingizga chin yurakdan tilakdosh,  
... ber bir salom!*

Ushbu kelin salom qo'shiqlari to'rt misrali band usuli barmoq vaznida yozilgan: b-b-b-a, d-d-d-a ... shaklida qofiyalangan. Har bir misra oxirida qo'llangan „desin“ so'zi **radif** bo'lib kelgan. „qarindosh“, „qosh“, „tilakdosh“ kabi qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan so'zlarning oxirgi „sh“ tovushi **raviy** bo'lib kelgan. Kelin salom qo'shiqlaridagi bu unsurlarning qo'llanishi va oxirgi misraning bir xil takrorlanishi murabba' she'r janiri bilan o'xshashlik kasb etadi.

Muxammas (ar. – „beshlik“) har bandi besh misradan iborat she'r bo'lib: a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a ... shaklida qofiyalanadi. Muxammasda dastlabki besh misra o'zaro qofiyalanadi, keyingi bandlarda dastlabki to'rt misra o'zaro qofiyalanib oxirgi misra birinchi bandning beshinchi misrasiga ohangdosh bo'lib keladi. *Muqumiyning*

*Soyadurmenki, boqmas oftobim kim desun?  
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim kim desun?  
Bir o'qitmaydur bitib bergan kitobim kim desun?  
Ul tag'oful peshaga holi harobim kim desun?  
Xajrida mundog' meni ko'rgan azobim kim desun?*

*Oshnosidin kechib, begonalarga yor-yor,  
Bu alamlarga chidolmay, ko'z yoshimdur shashqator,  
Xech dushman bo'lmasun kuyida mendek xor-u zor,  
Kunduzi bir yerda bir dam olmay oromu qaror,  
Laxzaye yo'q kechalar ko'zlarda hobim kim desun?*

Ushbu muxammasida a-a-a-a, b-b-b-b-a shaklida qofiyalanganligini kuzatishimiz mumkin. O'zbek she'riyatida bu kabi besh misralik band usulida she'rlar yozilganiga guvoh bo'lamiz. Ammo besh misradan iborat bandli she'rlar muxammas she'r janridan farq qiladi. Beshliklar band usulida, barmoq vaznida yozilishi bilan muxammaslardan farqlanadi. Masalan: G'ofur G'ulomning „Bu – sening imzong“ sherini keltirishimiz mumkin.

*Ga'laba umrining qomus mazmuni,  
Bezagi, yakuni – xar bitta xating.  
Ozodlikka chanqoq ellarga yetgan  
Kulbasin yoritur albatta xating,  
Aziz vatandoshim, bu – sening imzong.*



*Yoki*

*Yengilma, azizim, yengilma faqat,  
Mag'lubni ko'rishda yo'q menda toqat.  
Tik tutib yurishga yaralgan-ku bosh,  
Dilimni zimiston o'raydi qat-qat,  
Agar ko'zlarida ko'rmasam otash*

Ushbu she'rlar muxammas kabi besh misrali ammo a-b-v-b-d kabi qofiyalanishi ...

Kelin salom qo'shiqlari muxammas va beshlik band usulida yozilgan she'rlarga o'xshash va farqli jihatlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Muxammas va beshlik band sherlarda ijodkorning ichki kechinmalari, o'y xayollari o'z aksini topsa, kelin salom qo'shiqlarida ko'proq niyat-istak, pand-nasixat va yumoristik kinoya kuchli bo'ladi.

Masalan:

*Saloming ko'p – ado bo'lmas baribir,  
Kuli bilan chiqib o'ti bilan kir,  
Oltin darvozasi senga ochiqdir,  
Ostonangga ta'zim berib uyga kir!  
Baxt-la kelgan uyingga bergil bir salom!*

Ushbu kelin salom qo'shig'i b-b-b-b-a shaklida qofiyalangan. To'rtta misra bir-biri bilan o'zaro qofiyalanishi va oxirgi beshinchi misraning takror qo'llanishi muxammas she'r janriga oxshasa, barmoq she'r vaznida yozilishi bilan farqlanadi.

*Har uyingning beminnati kelini – gazdir,  
Tabiiy gaz kelsa, ming bora sozdir,  
Tutunsiz gaz kelsa, ming bora sozdir,  
Tutunsiz, kulsiz o't – qishlar ham yozdir,  
Gazchi Ravshan akaga bergil bir salom!*

Albatta, kelin salom qo'shiqlarida yumor, kinoya, piching ko'p bo'lganligi bois juda kulgili va tasirchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu bayt a-a-a-a-b shaklida qofiyalangan va kuchli kinoyaga yo'g'rilgan deyish mumkin. Baytni ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Birinchi ma'nosi gaz yo'q qishloqdagi hayotiy holatni tasvirlasa, ikkinchi ma'nosi kelin xizmatidan ko'proq foydalanish, kelinga beminnat ishchi sifatida qaralsa, uning odobi-axloqi, tarbiyasi, oilaparvarligi, sadoqati, hamma vaqt tinch hayot kechirishi nazarda tutiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yusupova.D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: „ta’lim-media“ nashriyoti, 2019.
2. A. Хожиаҳмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. – “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти Тошкент – 1999.
3. Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – 1983
4. Karimov.O. Mumtoz she’riyat janrlari. – „Namangan“ nashriyoti.2015.
5. Allambergenov, H. K., & Shamsiyev, D. I. (2024). Image Of Jabroil Alayhissalam In Navoyi's Me’rojnomas. SPAST Reports, 1(1).
6. Allambergenov, H. (2024). „MEZON UZ-ZAMON “–DAVR VOQELIGINING KO ‘ZGUSI SIFATIDA. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 236-245.
7. Kamalovich, A. H. (2023). O ‘ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA G ‘AYRITABIIY OBRAZ BADIY XUSUSIYATLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 4(6), 14-19.

